



EXTENSIVE REFORMS BEING IMPLEMENTED FOR THE PEACE AND PEACE OF OUR COUNTRY

Ruhshona Orzikulova

Student

Law Enforcement Academy

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: law, tranquility, peace, reform, strategy, patriotism, rights and freedoms of citizens, state policy regarding youth, sovereignty, cooperation, gender equality, education, vulnerable group, benefits, justice.

Received: 31.10.24

Accepted: 02.11.24

Published: 04.11.24

Abstract: This article describes the wide-scale reforms that are being carried out for the peace and tranquility of our country. In particular, measures aimed at reforming law enforcement agencies, ensuring citizen safety, strengthening social stability, and protecting human rights and freedoms were considered. Issues such as modernization of the state administration system, improvement of the legal culture of citizens, strengthening of international cooperation are also analyzed. These reforms are aimed at making the society more stable, peaceful and safe. This article presents scientific and practical information about the wide reforms and innovative approaches that are being implemented in the path of peace and tranquility of our country. In addition, methods have been developed for extensive reforms and innovative approaches to the peace and tranquility of our country.

YURTIMIZ TINCHLIGI VA OSOYISHTALIGI YO'LIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN KENG ISLOHOTLAR

Ruhshona Orzikulova

Talaba

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquq, osoyishtalik, tinchlik, islohot, strategiya, vatanparvarlik, fuqarolarning huquq va erkinlari, yoshlarga oid davlat siyosati, suverenitet, hamkorlik,

Annotatsiya: Ushbu maqlada yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Xususan, huquq-tartibot organlarini

gender tengligi, ta'lim, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, imtiyozlar, adolat.

isloq qilish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo'nalishlaridagi chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalar tahlil etiladi. Ushbu islohotlar jamiyatni yanada barqaror, osoyishta va xavfsiz qilishga qaratilgan. Mazkur maqolada yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlar haqida ilmiy-amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlar bo'yicha metodlar ishlab chiqilgan.

РАСШИРЕННЫЕ РЕФОРМЫ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫЕ ДЛЯ МИРА И МИРА НАШЕЙ СТРАНЫ

Рухшиона Орзикулова

Студент

Академии правоохранительных органов

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: закон, спокойствие, мир, реформа, стратегия, патриотизм, права и свободы граждан, государственная политика в отношении молодежи, суверенитет, сотрудничество, гендерное равенство, образование, уязвимая группа, льготы, справедливость.

Аннотация: В данной статье описаны широкомасштабные реформы, которые проводятся ради мира и спокойствия в нашей стране. В частности, были рассмотрены меры, направленные на реформирование правоохранительных органов, обеспечение безопасности граждан, укрепление социальной стабильности, защиту прав и свобод человека. Также анализируются такие вопросы, как модернизация системы государственного управления, повышение правовой культуры граждан, укрепление международного сотрудничества. Эти реформы направлены на то, чтобы сделать общество более стабильным, мирным и безопасным. В данной статье представлены научные и практические сведения о широких реформах и инновационных подходах, которые реализуются на пути мира и спокойствия в нашей стране. Кроме того, разработаны методы масштабных реформ и новаторские подходы к миру и спокойствию в нашей стране.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, tinchlik va osoyishtalikni saqlash borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Tinchlik va osoyishtalik — bu nafaqat jamiyatning barqaror rivojlanishi, balki mamlakat fuqarolarining farovon va xavfsiz hayoti uchun shart-sharoit yaratish demakdir. Ushbu maqola O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning jamiyatga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlanadi [1]. O‘zbekiston Respublikasi o‘z suverenitetini qo‘lga kiritganiga mana 33 yil to‘libdi. Mustaqillik biz uchun ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bilamizki, mustaqillik yillarida ko‘hna tariximiz, tarixiy yodgorliklarimiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligidimiz, milliy urf-odat hamda an‘analarimiz, muqaddas dinimiz, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy, tabiiy, madaniy huquq va erkinliklari qayta tiklandi.

Bugungi kunda millatlararo bag‘rikenglik, hamjihatlik, mehr-oqibat kabi oljanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatanimizning taqdiri va uning kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi yuragimizning tub-tubidan o‘rin oldi. Bilamizki, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimiz farovonligini ta’minalash uchun, yurtimizda jinoyatlarni yanada kamaytirish uchun yoshlarga bo‘sish ishchi-o‘rnlari yaratilmoqda, ularning bo‘sish vaqtlarini yanada mazmunli o‘tkazish uchun ularga yangi turda, zamonaviy jihozlar hamda asbob uskunalar bilan ta’milangan musiqa hamda sport maktablari tashkil etildi[2].

Yurtimizda har bir jabhani rivojlantirish, aholi turmush tarzini yanada yaxshilash uchun taraqqiyot strategiyalari ishlab chiqildi, xotin-qizlarga foizsiz kreditlar joriy etildi, nogironligi bo‘lgan shaxslarga oid ko‘plab qonun hujjatlari joriy etildi hamda ularning huquq va erkinliklari yanada ko‘proq ta’minaldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, ularning ta’lim olishi, ularga nisbatan tazyiq hamda zo‘ravonliklarni oldi olinishiga oid ko‘plab hujjatlar qabul qilindi. “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” ko‘plab farmonlar qabul qilindi. Bularning barchasi yurtimiz tinchligi uchun albatta.

Material va metodlar. Ushbu maqolani tayyorlashda davlat organlarining rasmiy ma'lumotlari, Prezident farmonlari, qonun hujjatlari hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi. Maqolada huquqiy islohotlar, xavfsizlikni ta’minalash va ijtimoiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha statistik ma'lumotlardan ham foydalanildi. Tahliliy metod sifatida islohotlarning ijtimoiy va huquqiy jihatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi[3]. Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlarning metodologiyasi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, metodologiya so‘ziga to‘xtalib o‘tishimiz kerak.

Metodologiya so‘zi (metod va ... logiya so‘zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot degan ma’noni bildiradi[4].

Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: birinchisi, bilamizki mamlakatimizning ko‘pchilik qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar – kelajak bunyodkori. Hozirda ko‘pchilik yoshlar tezroq til o‘rganib chet davlatga ketishga oshiqmoqdalar, to‘g‘ri chet davlatda o‘qib bizga yangi innovatsiyalar olib kelishi mumkin. Lekin ko‘pchilik yoshlar o‘z yurtiga qaytish istagidan yiroqda. Mening nazdimda, avvalo, yoshlarginizda bolaligidan boshlab vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirib borishimiz darkor.

Ikkinchidan, mahallalarimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlaming turmush tarzini yanada yaxshilash hamda mahallalardagi yosh iste’dodlarni kashf etish uchun qo‘srimcha shtatlar joriy etildi. Lekin bu tizim to‘liq o‘z faoliyatini amalga oshira olmoqda deya aytolmaymiz. Sababi, ular har bitta xonadonga borib ularning iste’dodlarini ko‘ra olmaydilar. Shu sababdan, maktab hamda bog‘chadan iste’dodlarni kashf etish kerak. Ma’lumot tarzida oladigan bo‘lsak har bitta bolada iste’dod bo‘ladi, ammo shu iste’dodlarni bolalikdanoq bog‘cha hamda maktabdagi ustozlar ota-onalar bilan kelishgan holda qiziqishlari asosida to‘g‘ri sohaga yo‘naltirish kerak.

Uchinchidan, yurtimiz farovonligini ta’minalash hamda yurtimizdan jinoyat tomirini butkul olib tashlash, poraxo‘rlik, firibgarlik, o‘g‘irlik, inson joniga suiqasd qilish hamda korrupsiya kabi holatlarni oldini olish uchun fuqarolarimizning huquqiy ongi bilan birqalikda huquqiy madaniyatini ham yuksaltirishimiz kerak. Faqatgina huquqiy ongning o‘zini rivojlanishi yetmaydi balki uni to‘g‘ri o‘z joyida bajarish huquqiy madaniyatni keltirib chiqaradi. Shu narsani har bitta fuqaroning ongiga bolaligidan maktabdan shakllantirish kerak bunga huquq sohasiga oid ko‘plab tanlovlardan tashkil etish hamda ijtimoiy roliklar orqali erishish mumkin.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda huquq-tartibot organlarini isloh qilish borasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi tizimini yangilash, davlat xavfsizligi organlarini modernizatsiya qilish va sud-huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha qator dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari yanada mustahkamlandi, jinoyatchilik darajasi pasaymoqda, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik oshmoqda[5].

Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi oshirildi, korruptsiyaga qarshi kurash chorralari kuchaytirildi. Bunday o‘zgarishlar fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirish bilan birga, xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda[6].

Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlar sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida gapirar ekanmiz, kuni kecha

yurtimizning tinchlik bo'yicha dunyoda 1-o'rinni egalladi. Yurtimiz MDH hamda qo'shni davlatlar bilan ochiqlik siyosatini amalga oshirmoqda. Yurtimizning yanada taraqqiy topishi uchun taraqqiyot strategiyasi va ko'plab yo'l xaritalari ishlab chiqildi. Har qanday jamiyatning madaniy darajasi ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2021 yilda O'zbekistonda 2030 yilgacha mo'ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi va uning ijrosi ta'minlanmoqda[7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasiga 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda[8]. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi". Haqiqatan ham, Oliy Majlisga bo'lib o'tgan oxirgi saylovlari natijasida birinchi marotaba O'zbekiston parlamentida ayollar soni bo'yicha BMT tavsiyalari 30 foizga to'liq bajarildi. Qonunchilik palatasiga 32 foiz, ya'ni 48 nafar ayol-deputatlar saylangani, o'z navbatida, dunyodagi 190 parlament ichida O'zbekiston parlamentining 37-o'ringa ko'tarilishi axamiyatlidir[9]. Hozirgi vaqtda O'zbekiston xotin-qizlarining 7 nafari – akademik, 271 nafari – fan doktori (DSc), 1 ming 411 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohibalari hisoblanib ular yoshlarga o'rnak bo'lish bilan birga ularga ustozlik qilib kelmoqda[10].

Mamlakatimizda ta'lim siyosatiga alohida urg'u berib qaralmoqda, zero, yoshlar kelajak mevasi, davlatning bayrog'ini, nomini yoshlar taratadi dunyoga. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, 2024-yil Parij olimpiadasida mamlakatimizning yosh mamlakat bo'lishiga qaramay qo'rg'a kiritgan 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medal bilan egallagan 13-o'rmini bu ajoyib islohotlarning mevasi desak adashmagan bo'lamiz. Yurtimiz bayrog'i xoh ilm sohasi, xoh sport, xoh san'at sohasi bo'lsin ko'klarga ko'tarilmoqda hamda yurtimiz madhiyasi yangramoqda[11].

23-aprel kuni Termiz shahrida "**Belarus – Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston**" multimodal transport koridorini rivojlantirish bo'yicha ishchi guruhning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi[12]. Unda davlatlarning transport vazirligi rahbarlari ishtirok etishdi. Uchrashuvda mazkur multimodal transport koridorini rivojlantirish yo'li bilan Markaziy Osiyo va MDHga a'zo davlatlarni O'zbekiston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lash va yurtimizning tranzit salohiyatini yanada oshirish masalalari muhokama etildi. So'nggi yillarda Afg'oniston orqali tranzit yuk tashish hajmi 30 foizdan ortiq oshib, qariyb 1 million tonnani tashkil etdi. 2021-yilda O'zbekiston hamda Pokiston o'rtasida tranzit savdo to'g'risida bitim imzolangandan so'ng mamlakatlarimiz o'rtasida yuk tashuvlari hajmi ortib bormoqda[13]. 2022-yilda ikki mamlakat o'rtasida Afg'oniston orqali yuk tashuvlari 2021-yilga nisbatan ikki yarim barobarga oshib, 675 ming tonnani tashkil etdi. Joriy yilda mazkur koridor orqali O'zbekiston **1 mln** tonnadan ortiq yuk tashishni rejalashtirgan. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va

zo'ravonliklarni oldini olish uchun ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi[14]. Jumladan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish" to'g'risidagi Qonunning 23-moddasida xotin-qizlarimizga himoya orderi berilishlari, ularni davlat o'z himoyasiga olishini kafolatlashi bayon etilgan. Bu ham davlatimizning xotin-qizlarga bo'lgan e'tiboridan dalolat beradi[15]. Yurtimizda fuqarolarning huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirishi, ularning o'z huquq va erkinliklarini bilish uchun ko'plab konstitutsion tanlovlardan tashkil etilmoqda. Bularning barchasi davlatimiz rahbarining olib borayotgan oqilona siyosatlaridan darak beradi.

Xulosa. O'zbekistonda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar mamlakatni barqaror va xavfsiz rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. Islohotlar natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinmoqda, davlat boshqaruvi tizimi yanada shaffof bo'lmoqda va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda. Kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar esa jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Islohotlarning samaradorligi jamiyatning turli qatlamlari tomonidan yuqori baholanmoqda. Xususan, xalqaro hamjamiyat O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida qo'lga kiritilgan natijalarni ijobjiy qabul qilmoqda. Shu bilan birga, islohotlarning kelgusidagi istiqbollari haqida gap ketganda, huquqiy madaniyatni yanada oshirish, qonuniylikni mustahkamlash va fuqarolar o'rtasida mas'uliyat hissini kuchaytirishga ehtiyoj seziladi.

Davlatning tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida sa'y-harakatlari xalqning farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy islohotlarning davom ettirilishi va yangi dasturlarni amalga oshirish jamiyatning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa tarzida aytadigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degan gaplari biz yoshlar uchun yanada ulkan motivatsiya hisoblanadi. Biz yoshlar bizga berilayotgan bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yurtimiz rivoji uchun albatta o'z hissamizni qo'shishimiz hamda o'z ona yerimizni himoya qilishimiz darkor!

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib aytadigan bo'lsak, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng islohotlar hamda innovatsion yondoshuvlar mavzusi muhim ahamiyatga molik mavzu sanaladi va bu borada yanada ko'plab ishlarni amalga oshirishimiz zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdidlar, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 56 b.
- [2] Qosimov A. R. O'zbekistonda siyosiy islohotlar va tinchlikni ta'minlash masalalari // Siyosatshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2018. – 128-143 b.
- [3] Rustamov Sh.A. O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan, 2020. – 96 b.
- [4] Matnazarov O. O. O'zbekiston: Milliy xavfsizlik va tinchlik yo'lidagi islohotlar // Jamiyat va boshqaruv. – 2021. – №4. – 25-33 b.
- [5] Mahmudov R.T. O'zbekistonda ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar: yangi bosqich. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019. – 214 b.
- [6] Xodjayev Z.M. Xavfsizlik va tinchlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020. – 76 b.
- [7] Abdullayev N.K. Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda yoshlarning roli // Yoshlar va siyosat. – 2022. – №2. – 45-53 b.
- [8] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi: Tinchlik, barqarorlik va rivojlanish yo'lida. – Toshkent: Adolat, 2021. – 320 b.
- [9] Sobirov A.B. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni va roli // Xalqaro munosabatlar. – 2020. – №3. – 77-89 b.
- [10] Yuldasheva G.T. O'zbekistonning tinchlikni saqlashdagi xalqaro tajribasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022. – 140 b.
- [11] Qodirov S.M. Tinchlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning roli // O'zbekiston innovatsion rivojlanish jurnali. – 2021. – №3. – 15-23 b.
- [12] Rasulov A.K. O'zbekistonda xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish // Innovatsion xavfsizlik texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 132 b.
- [13] Tursunov O.N. Innovatsion yondashuvlar asosida barqarorlikni mustahkamlash // Xalqaro munosabatlar va innovatsiyalar. – 2020. – №2. – 45-53 b.
- [14] Xalilov M.A. O'zbekistonda ichki xavfsizlikni ta'minlashda innovatsiyalarni joriy etish. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021. – 144 b.
- [15] Sadullayev B.T. Milliy xavfsizlikda raqamli innovatsiyalar va ularning ahamiyati // O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot. – 2022. – №1. – 76-84 b.